

Yuldasheva Ma'mura Yo'ichiyevna,
PROFI xususiy oliy ta'lim muassasasi, "Boshlang'ich
ta'lim" kafedrası mudiri, Xalq ta'limi a'lochisi

O'QUVCHILARNING MATEMATIKANI O'RGANISHGA BO'LGAN MUNOSABATI XUSUSIDA

UO'K: 372.851

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_6_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_6_8)

YULDASHEVA M.Y. O'QUVCHILARNING MATEMATIKANI O'RGANISHGA BO'LGAN MUNOSABATI XUSUSIDA

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaga bo'lgan munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada o'quvchilarning matematikaga bo'lgan salbiy munosabatlari, xususan, xatolardan qo'rqish, o'qituvchilarning salbiy fikrlari va ota-onalarning qo'llab-quvvatlamasligi kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalarning salbiy munosabatlari o'quvchilarning matematikaga bo'lgan ishtiyoqiga qay darajada ta'sir qilishi ko'rsatiladi. Maqolada o'quvchilarda matematikaga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun o'qituvchilar va ota-onalarning mas'uliyatini oshirish zarurligi ta'kidlanadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: matematika faniga munosabat, o'quvchilarning ishtiyoqi, xatolarni o'rganish, matematik tafakkur, o'qituvchilarning ta'siri, ota-onalarning roli, salbiy munosabatlar, matematika fanini o'zlashtirish.

ЮЛДАШЕВА М.Ю. ОБ ОТНОШЕНИИ УЧАЩИХСЯ К ИЗУЧЕНИЮ МАТЕМАТИКИ

Данная статья посвящена изучению отношения учащихся начальной школы к математике. В статье анализируются факторы, влияющие на негативное отношение учащихся к математике, в частности, страх совершить ошибку, негативное мнение со стороны учителей, отсутствие поддержки со стороны родителей. В нем также показано, как негативное отношение со стороны учителей и родителей влияет на энтузиазм учащихся в отношении математики. В статье подчеркивается необходимость повышения ответственности учителей и родителей за формирование у учащихся положительного отношения к математике.

Ключевые слова и понятия: отношение к математике, вовлеченность учащихся, обучение на ошибках, математическое мышление, влияние учителя, роль родителей, негативное отношение, усвоение математики.

YULDASHEVA M.YU. ON THE ATTITUDE OF STUDENTS TOWARDS THE STUDY OF MATHEMATICS

This article is dedicated to studying the attitude of primary school students towards mathematics. It analyzes the reasons for negative attitudes, such as fear of making mistakes, negative comments from teachers, and lack of support from parents. The article also examines the impact of these factors on students' motivation to learn mathematics. It emphasizes the importance of fostering a positive attitude towards mathematics and the role of teachers and parents in this process.

Key words and concepts: attitude towards mathematics, student motivation, fear of mistakes, mathematical thinking, influence of teachers, role of parents, negative attitude, mastering mathematics.

Kirish. Boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish samaradorligi o'quvchilarda ushbu o'quv fani darslariga ijobiy munosabatlar shakllanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu munosabatlar ularning ishtiyoqi, boshidan kechiradigan quvonch va xafagarchiliklari, ayniqsa, qiyinchiliklari, maktabda o'qituvchining, uyda ota-onalarning ta'siri asosida shakllanadi. Zepo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati matematika fanini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir!"¹.

Mavzuning dolzarbligi. Matematika darslarida sinfdagi barcha o'quvchilar birday qiziqish va faollik bilan misol va masalalarni yechishda qatnashmas ekanlar, kutilgan samaradorlikka erishish qiyin bo'ladi. Qiziqish va faollikning hamma bolalarda birday bo'lmasligiga bo'sh o'zlashtiruvchilarning matematika o'quv faniga salbiy munosabatlari, bunday munosabatlarning shakllanishiga ko'pincha sinfdoshlari, o'qituvchilarning o'zlari, ota-onalari sababchi bo'lmoqdalar. O'qituvchi ko'pincha mavjud munosabat natijalarini hisobga olayotgani, vaziyatni o'nglash chora-tadbirlarini belgilayotgani yo'q. Buning uchun esa avval shu munosabatlarning ildizlaridan xabardor bo'lmog'i kerak..

Mavzuning maqsadi. Berilgan masalani yechish usullari haqida har kim o'z fikrini bildirsing degan topshiriq berilganda yoki biror masalani uyda mustaqil ishlab keling mazmunidagi vazifa topshirilganda sinfdagi yaxshi o'zlashtiradigan tengdoshlarining, ba'zan o'qituvchining, uyda ota-onalarning ko'rsatadigan salbiy ta'sirini hisobga olish zarur bo'ladi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Xorijlik tadqiqotchi Jo Bouler o'zining o'qituvchilar uchun mo'ljallangan "Математическое мышление" degan qo'llanmasida² o'quvchilarning matematikaga bo'lgan salbiy munosabatlari, xususan, xatolardan qo'rqish, o'qituvchilarning salbiy fikr-

lari va ota-onalarning qo'llab-quvvatlamasligi kabi omillarni joy-joyida tahlil qilib o'tgan.

Tadqiqotning obyekti объекти bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarning masalani yechish usullari haqida fikr bildirishlariga monelik qiladigan holatlar: sinfdoshlarining, o'qituvchining, uyda ota-onalarning salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladigan munosabati, salbiy ta'sirlarning oldini olish choralari.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar: мантикий таҳлил, эмпирик кузатув, suhbat.

Асосий қисм. O'quvchilar matematika darslarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar³ tufayli turli ruhiy holatga tushib turadilar: birida «Men matematikani o'rgana olmayman», yana birida «Men matematikani bo'sh o'zlashtiraman», «Men matematika darslarini yomon ko'raman» kabi munosabat namoyon bo'ladi. Matematikadan bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ushbu o'quv fanini yoqtirmay qo'yadilar. Bo'sh o'zlashtirish sabablaridan biri misol va masalalarni yechishda xatolarga yo'l qo'yishlari va shu tufayli past baho (ball) olishlari, shu tufayli uyda har gal dakki eshitaverishlaridir. Xatolardan qo'rqish ham matematika darslarini yomon ko'rib qolish sabablaridan biridir. Xatoga yo'l qo'yishdan bola xavotirga tushadi.

Ayrim misol va masalalar bir xilligi, bir usulni uzoq takror-takror qo'llash, shu tufayli bajariyatgan amalning avtomatizm darajasida yod bo'lib ketishi qiziqishni so'ndiradi. Qiziqishning yo'qolishi loqaydlik holatlarini keltirib chiqaradi. Buning ustiga darslarda o'quvchilar asosan o'qituvchining tushuntirishini tinglaydilar, savollarga javob beradilar, biror masalada bir-biri bilan bahslashmaydilar, biror tushuncha haqida o'z fikrlarini aytib, mushohada yuritmaydilar.

Yuqoridagi mazmunda ta'lim olib, maktabni tamomlagan yoshlar salbiy munosabati tufayli hisob-kitob yuritadigan kasblardan o'zlarini olib qochadilar, ya'ni matematikani bo'sh o'rganganlik kasb tanlashga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bunday holatlar matematikani yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarni ham shu fandan uzoqlashtirishga sabab bo'ladi. Ko'proq qizlar jabr ko'radi: ular matematikasi bor sohalarga bormaydilar. Boshqacha aytgandek, yosh-

¹ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoyev-bu-fanni-yaxshi-bilgan-bola-aqlli-keng-tafakkurli-bolib-usadi>.

² Бойлер Джо. Математическое мышление. Книга для родителей и учителей Бойлер Джо; перевод с английского Наталья Яцук. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019.

³ Мендыгалиева А.К. Общие вопросы методики преподавания математики в начальных классах. Учебное пособие. — Оренбург, 2019. — с. 54.

lar masalalarni yechishda, misollarni ishlashda xato qilishdan qo'rqqanlaridek, matematikasi bor sohalarda ishlay olmaslik kayfiyatida bo'ladilar. Bunday holat farzandlarimiz, ayniqsa, qizlarimiz orasida keng ildiz otgan. Aksincha, o'quvchilarda matematikani hamma o'rgana oladi, degan qat'iy ishonch paydo qilishgina, shu niyatda darslar ularning matematik tafakkurini rivojlantirishga qaratilsagina, bunday salbiy munosabat o'zgarib, o'z kuchiga, ijodiy qobiliyatlarga ishonch barqarorlashadi.

Aslida, Jo Boulerning fikricha, o'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolar foydali. Xatoga yo'l qo'yilganda miya faol ishlay boshlaydi va tafakkurning rivojlanishi, bunga qo'shimcha ravishda qayta o'qib-o'rganish jarayoni sodir bo'ladi¹. Bu juda muhim, chunki xato qilgan odam o'zini noqulay his qiladi: o'z bilimini qayta ko'rib chiqish, to'ldirish zaruriyatini sezadi. Muallifning yana bir fikri: xatolar qadrlanmaydigan yoki undan ham battari – jazolanadigan joyda yetarlicha o'sish ham bo'lmaydi. O'quvchilarga xato qilmay ishlashsin deb o'ta sodda, oson yechiladigan misol va masala berilsa, bunday topshiriqlar ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmaydi, boshqacha aytganda, bunday jarayonlarda o'rgatish ishlari nolga tenglashadi.

O'qituvchi o'quvchilarga faqat mayda rasmlar asosida qo'shish yoki ayirish uchun misol bersayu, raqam keltirmasa, ushbu misol xatosiz bajarilgani bilan sanashni o'rgatadi, lekin raqamlar asosida fikrlashga yordam bermaydi: matematik tafakkurni o'stirishga tayyorlamaydi.

O'quvchilarda matematikani o'rganishga munosabatning shakllanishiga o'qituvchilar ham, ota-onalar ham sababchi bo'ladilar. Ayrim o'qituvchilar matematikani qiynalib o'rganayotgan bolalarga quyidagi kabi gaplarni ko'p marotaba aytadilar: "Sen matematik bo'la olmaysan", "Matematikaga sening aqling yetmaydi", "Ovora bo'lma, sendan matematik chiqmaydi" va h.k. Ba'zi o'qituvchilar hamma bolalar matematikani birday yetarlicha yuqori darajada o'rgana olmaydi, degan fikrda bo'ladilar, eng yomoni, shu nuqtayi nazarda turib ularga salbiy ta'sir o'tkazadilar. Bunday bo'lmasligi uchun o'qituvchilar o'zlariga ta'limiy va tarbiyaviy vaziri-

falarni samarali hal qilishga doir qanday ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq degan savol berib, javob izlashlari darkor². A.Yu.Bakirova bunday izlanishnii o'qituvchining pedagogik (tarbiyaviy) faoliyatga tayyorgarlik jarayoni bilan bog'laydi³.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ayrim o'qituvchilar ham, ota-onalar ham ba'zi bolalar matematika bilan astoydil shug'ullanishga qodir emaslar, kelgusida bu soha ularga muvaffaqiyat keltirmaydi, maktabda alohida iqtidor namoyon qilib o'qiganlarigina matematikasi bor sohalarda yutuqlarni qo'lga kirita oladilar, deb hisoblaydilar.

Bunday ota-onalarning «Matematikaga aqling yetmaydi», «Sen matematikadan "bo'm-bo'shsan"» kabi qat'iy aytilgan gaplari, dakkilari ham sabab bo'ladi. Bunday gaplar, dakkilar bolalarga juda yomon ta'sir qilib, ularni tushkun bir vaziyatga soladi: matematikani alohida qiziqish bilan o'rganishdan tiyila boshlaydi.

Uyda ona-onalar farzandlariga uy vazifasini bajarishda vaqti yo'qligidan yordam bera olmaydi, vaqti borlari ularga o'zlarining matematikaga munosabatlarini aytib, ko'maklashishdan bosh tortadilar: "Men matematikani yomon ko'rar edim", "Men ham matematikadan misol va masalalarni ko'pincha yecha olmas edim", "Sizlarga topshirilayotgan misol va masalalar butunlay boshqacha, shuning uchun o'qituvchi tushuntirganidek qilib o'zing ishlayver", "Sen matematikani o'rganishing shart emas", "Mening vaqtim yo'q, dadangdan borib yordam so'ra" va hokazo.

Ota-onasi yordamida uy vazifasini bajarayotgan bola har bir misolni ishlab, yechimi nechcha bo'lishini aytadi, ota-onasining ma'qullashini kutib yozmasdan turadi. Kattalardan "To'g'ri, yoz", degan javobni eshitgandan keyingina yechimini yozib qo'yadi. Bolaning bu tarzda uy vazifasini bajarishi ota-onaning toqatini toq qiladi.

² Методика преподавания математики: учебник по направлению бакалавриата 5141600- «начальное образование и спортивно-воспитательная работа» / З.Г. Таджиева [ва бошк.]; МВ и ССО РУз, Таш. гос.пед. ун-т им. Низами. — Т.: Turon-Iqbol, 2011. — с. 5.

³ Бакирова А.Ю., Сайдалиева Ф.Х. Методика преподавания математики: Учебное пособие. – Тпшкент, 2007. – с. 115.

¹ Бойлер Джо. Математическое мышление. Книга для родителей и учителей Бойлер Джо; перевод с английского Наталья Яцук. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019.

Uyda boshqacha usulni qo'llash mumkin: avval biror qog'ozda qoralama qilib mustaqil ishlab kattalarga ko'rsatish vaziyatni yengillashtirgan bo'lardi-yu, lekin bunday usul uyda deyarli qo'llanmaydi.

Misol va masalalarni mustaqil xulosaga kelish, qait'iyat bilan uy vazifasini yozib bo'lishda sustkashlik qilavergan bolalar oxir-oqibat o'zlashtirishda ortda qola boshlaydilar, bo'sh o'zlashtiruvchilar qatoridan joy oladilar. Bunday o'quvchilar o'z rivojlanishini tezlashtira olmaydilar va yuqori darajaga erisha olmaydilar. Vaholanki, bunday vaziyat yuz bermasligi: ular ham barcha bolalarga munosib bo'lgan sifatli ta'lim va yordam bilan matematikani yaxshi o'zlashtirishlari mumkin edi.

Yana bir keng tarqalgan xato: matematikani faqat eng aqlli odamlar o'zlashtira oladi. Shunday qilib, bu sohadagi muvaffaqiyatsizliklar o'quvchilarga ayniqsa og'riqli ta'sir ko'rsatadi: ular ahmoq va hayotda jiddiy muvaffaqiyatlarga erisha olmaydilar degan xulosaga kelishadi. Bu afsonani yo'q qilish kerak.

O'quvchilarga ba'zan butun bir bet uy vazifasi topshiriladi, bunday vazifalar oilada qanday noxush vaziyatlarni vujudga keltirishini tasavvur qilish qiyin emas.

Darsliklarda yechish talab qilinadigan misol, masala va topshiriqlarni yechish uchun namuna berilmasligi yoki darslarda o'tilmagan usullarda bajarish talab qilinishi bunga misol bo'la oladi.

Albatta, ko'p bolalar tug'ilishdan boshlab matematika bo'yicha yetarlicha taassurot va signallarni oladilar, amaliy bilimlar to'playdilar.

Matematika darslarida testlarga ma'lum o'rin ajratiladi. Ayni testlar o'quvchilarda ushbu o'quv faniga salbiy munosabat uyg'otishi mumkin. Birinchidan, mustaqil yechimga kelish ko'nikmalarini egallamagan bola uchun test topshiriqlarini bajarish noxush vaziyat: qoniqarsiz baho (past ball) olishi aniq. Ikkinchidan, o'quvchilarda matematikani chuqur mushohadalar yuritib o'rganish shart emas ekan, degan fikr paydo bo'ladi. Testlarni darsda bajarib ulgurish kerakligi esa uzoq o'ylash imkonini bermaydi, natijada testlarning chala qolishi mumkinligi bolani oldindan qo'rquvga tushiradi, o'zini nochor sezadi. Bunday vaziyatlar matematik misollarni shartta-shartta yechib tashlash kerak, buning uchun amallarni yod olish, faktlarni eslab qolish zarur, degan fikrga olib keladi.

Amallarni yod olish, faktlarni eslab qolish qobiliyati bo'sh o'quvchilar matematika o'quv fanini yoqtirmaslikda davom etadilar.

Ayrim o'qituvchilar matematika darslarida uzoq o'ylashga, uzoq mushohada yuritishga hojat yo'q, amallar yod olinsa, faktlar eslab qolinsa, shuning o'zi kifoya qiladi, degan fikrda darslarni yaxshi o'zlashtiradiganlarga yoqadigan, bo'sh o'zlashtiradiganlarni inobatga olmagan, ularni taqdiriga tan beradigan alpozda bir qolipda tashkil etadilar.

Matematika darslarini tashkil etishdagi ayrim holatlar ham bolalarning salbiy munosabatiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, misol va masalalarni shartta-shartta yechish jarayonlari matematik tafakkurni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmagan holda amalga oshadi. Tabiatan sekin aqliy faoliyat ko'rsatadigan bola tezlasha olmaydi, o'zining bu holatini bilgani uchun o'zini battar nochor his qiladi: o'zlarini matematika uchun yaratilmagan ekanman, degan fikrni xayollaridan o'tkazadilar. Bunday darslar bolalarni zeriktiradi, ular matematika o'quv faniga qiziqmay qo'yadilar, misol va masalalarni yechishga ishtiyoq bilan kirishmaydilar.

Xulosa. Ma'lum bo'lishicha, ayrim bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarda quyidagi sabablarga ko'ra matematika o'quv faniga nisbatan salbiy munosabat shakllana boshlar ekan: misol va masalalarni yechishdagi qiyinchiliklar, qiziqishning pastligi, xatolarga yo'l qo'yishdan qo'rqish, xatolar tufayli yomon baho olish, past ball to'plash, uyda ota-onasidan dakki eshitish.

Ba'zi o'qituvchilarning bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ruhini tushiradigan gaplar aytishlari, darslarda nafaol ish turlaridan va usullaridan foydalanishlari, masalalarni yechish usullari haqida har bir o'quvchining o'z fikrini aytishlariga, bahslashishlariga imkon bermasliklari, yo'l qo'yiladigan xatolarga nisbatan murosasiz ekanliklari, mustaqil yechimga kelish ko'nikmalarini egallamagan bolalar uchun test topshiriqlarini bajarish noxush vaziyatlar keltirib chiqarayotganligi kabi holatlar ham bolalarning matematika o'quv faniga salbiy munosabatlariga turtki bermoqda.

Nihoyat, o'quvchilarda matematikaga nisbatan shakllanayotgan salbiy munosabatlarga otonalar ham sababchi bo'layotganliklarini alohida e'tirof etishga to'g'ri keladi. Ularning ba'zilari farzandiga uy vazifalarini bajarishda yordam

bera olmayotganliklari esa jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Xulosalarga tayangan holda quyidagi **amaliy takliflarni** ifodalash mumkin:

1. Bugungi matematika o'qituvchisi ish usulini o'zgartirishi, har bir o'quvchi matematikani yuqori darajada o'rgana oladi, degan g'oyaga amal qilib, matematik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikani egalashi va joriy qilishi, ushbu metodika asosida ish olib borib, barcha bolalarning matematikani yaxshi o'zlashtira olishi mumkinligiga da'vat etibgina qolmay, amalda shunga ishonitirishi, bolalar yo'l qo'yadigan xatolarga ham munosabatini

saboq olish tomonga qarab burib yuborishi, testlarni ehtiyotlik bilan tashkil qilishi lozim.

2. O'qituvchi o'quvchilarda matematika o'quv faniga nisbatan shakllanayotgan salbiy munosabatni o'z vaqtida aniqlashi, bunday munosabatni keltirib chiqaradigan sabablarni bilgan holda tarbiyaviy choralar ko'rishi maqsadga muvoviqdir,

3. O'qituvchi bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi, faqat rag'batlantiruvchi so'zlardan foydalanishi, ota-onalar bilan ishlash jarayonida ularga ham o'z farzandlarining matematikani o'rganishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga olib keladigan ta'sir o'tkazishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-bu-fanni-yaxshi-bilgan-bola-aqllikeng-tafakkurli-bulib-usadi>
2. Бойлер Джо. Математическое мышление. Книга для родителей и учителей Бойлер Джо; перевод с английского Наталья Яцук. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019.
3. Мендыгалиева А.К. Общие вопросы методики преподавания математики в начальных классах. Учебное пособие. — Оренбург, 2019. — 158 с.
4. Методика преподавания математики: учебник по направлению бакалавриата 5141600 - «Начальное образование и спортивно-воспитательная работа» / З.Г. Таджиева [ва бошкарар; МВ и ССО РУз, Таш. гос. пед. ун-т им. Низами. — Т.: Turon-Iqbol, 2011. — 336 с.
5. Бакирова А.Ю., Сайдалиева Ф.Х. Методика преподавания математики: Учебное пособие. — Ташкент, 2007. — 258 с.